XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 9 - fevral VI-34-17-11-158-K/22 Rishton tumani hokimligi

Rishton tuman hududidagi Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o’tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o’tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda Rishton tuman hokimining 2021 yil 28-dekabr kungi 92-11-1588-F/21-sonli farmoyishiga asosan Respublika Aerogeodeziya markazi Farg’ona hududlararo bo’linmasi tomonidan Farg’ona viloyati Rishton tumani hudididagi Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash yuzasidan olib borilgan ishlari yakuniga ko’ra tuman hududining umumiy peremetri 115140 metr, tumanning umumiy maydoni 30799,98 gektar ekanligi jumladan:

-Mehnatobod qishlog’ining umumiy peremetri 16160 metr ekanligi, umumiy maydoni 1529,81 gektar.

-Qayrag’och qishlog’ining umumiy peremetri 32556 metr ekanligi, umumiy maydoni 2637,14 gektar.

-Bo’ston qishlog’iining umumiy peremetri 35719 metr ekanligi, umumiy maydoni 2486,97 gektar.

-Zohidon qishlog’ining umumiy peremetri 26961 metr ekanligik, umumiy maydoni 2717,57 gektar.

-To’da qishlog’ining umumiy peremetri 44710 metr ekanligi, umumiy maydoni 3493,50 gektar.

-Rishton qishlog’ining umumiy peremetri 20959 metr ekanligi, umumiy maydoni 1627,95 gektar. Anklavt yerida umumiy peremetri 9453 metr ekanligi, umumiy maydoni 261,77 gektar.

-Oq’er qishlog’ining umumiy peremetri 37893 metr ekanligi, umumiy maydoni 2766,01 gektar.

-O’yrat qishlog’ining umumiy peremetri 33627 metr ekanligi, umumiy maydoni 3645,51 gektar.

-Beshkapa qishlog’ining umumiy peremetri 41623 metr ekanligi, umumiy maydoni 2659,31 gektar.

-Yoyilma qishlog’ining umumiy peremetri 36611 metr ekanligi, umumiy maydoni 5797,25 gektar.

-Rishton shaharining umumiy peremetri 24475 metr ekanligi, umumiy maydoni 1177,19 gektar ekanligi aniqlangan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kadastr agentligi Rishton tumani bo’limi tomonidan taqdim etilgan axborot va ma’lumotlar bo’yicha bildirilgan takliflarni inobatga olib, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat xokimyati to’g’risida”gi qonunning 6, 24 moddalariga asosan Halq deputatlar Rishton tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o’tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o’tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Kadastr agentligi Rishton tuman bo’limi boshlig’i R.Mirzaaxmedovning Rishton tumanining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to’g’risidagi axboroti, hamda Respublika aerogeodeziya markazi Farg’ona hududlararo bo’linmasi tomonidan Farg’ona viloyati Rishton tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo’yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko’rib chiqish yuzasidan ishchi guruhining yig’ilish bayoni ma’qullansin.

2.Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari A.Dehqonovga va “Rishton haqiqati” gazetasi bosh muharriri Z.Yigitaliyevlarga OAV lari yordamida ushbu qarorni keng ommaga yetkazib borish tavsiya etilsin.

3.Ushbu qarorni tasdiqlanishi Xalq deputatlari Farg’ona viloyat Kengashidan so’ralsin.

4.Mazkur qaror ijrosini tashkillash va nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Mamajonov) ga yuklatilsin.

Tuman hokimi **С.Солиев**